

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi(JIDU)ga kirish imtihoni tartibi

JIDUda 2020/2021 o‘quv yili uchun saralash imtihonlari ikki bosqichda o‘tkaziladi.

1-bosqich saralash imtihoni Moodle masofaviy ta’lim tizimida onlayn tarzda o‘tkaziladi. (<https://test2020.uwed.uz>).

Dastlabki bosqich ikki blokdan iborat bo‘ladi:

1-blok. O‘quvchining intellektual darajasini aniqlash (10 ta onlayn test IQ sinovlari, 60 ball):

- mantiqiy va keng fikrlash darajasini aniqlash;
- turli tushunchalar bilish darajasini aniqlash;
- faktlarni taqqoslash hamda ularning o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni topish darajasini aniqlash;

2-blok. Ona tilini bilish darajasini aniqlash (10 ta savolli 100 ta so‘zdan iborat qisqacha esse, 40 ball):

- Abituriyent yozgan esseni to‘g‘ridan-to‘g‘ri masofaviy ta’lim tizimida bajaradi.

Dastlabki imtihon maksimal 100 ballni tashkil etadi.

Dastlabki bosqichda 50 va undan yuqori ballni to‘plagan o‘quvchilarga ikkinchi bosqichda qatnashishga ruxsat beriladi.

2-bosqich saralash imtihoni **2020-yilning 13-15-sentyabr** kunlari Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hududida- maxsus tayyorlangan ochiq maydonda o‘tkaziladi.

2-bosqichda o‘quvchilar quyidagi fanlardan yozma test shaklida imtihon topshiradi:

- 1. Matematika fanidan - 20 ta test, 3.2 ball;**
- 2. Xorijiy til (ingliz tili, fransuz tili, nemis tili) fanidan - 20 ta 3.1 ball.**

Onlayn imtihonning birinchi bosqichi 08.09.2020-y.dan 11.09.2020y. gacha o‘tkaziladi.

Abituriyent o‘z imtihonining sana va vaqtini <https://al.uwed.uz> manzilidagi “**Imtihon sanasi / Дата экзамена**” bo‘limidan o‘z login paroli orqali kirib bilishi mumkin.

Abituriyentning logini – lotin grafikasida familiyaning birinchi harfi (**1 belgi**) va tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasportning nomeri (faqat nomer)dan tashkil topadi. Masalan: **d2336915** (bu yerda "d" familiyaning birinchi harfi lotin grafikasida, 2336915 - tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasportning nomeri).

Onlayn imtihon topshirish uchun har bir abituriyent onlayn imtihonga kirish uchun mustaqil ravishda imtihondan kamida 1 soat oldin <https://al.uwed.uz> manzilidagi “**Parolni olish / Получить пароль**” bo‘limidan o‘z login paroli orqali kirib bilishi mumkin (masalan, agar imtihon 09.09.2020 kuni soat 12-00 da bo‘lsa, parol nujno poluchit 09.09.2020 kuni soat 11-00 dan 12-00 gacha parolni olishlari lozim).

Akademik litsey abituriyentlari uchun dastlabki imtihonga tayyorgarlik maqsadida 03.09.2020y. kundan 07.09.2020y. soat 23:00 gacha <https://test2020.uwed.uz> manzilida **abituriyent logini** va **demo@2020** paroli yordamida imtihonning **DEMO versiyasini topshirish mumkin.** [Eslatib o‘tamiz, demo-imtihonning natijasi hech qayerda hisobga olinmaydi.](#)